

AMIR TEMUR SALTANATIDA SOLIQLAR TIZIMI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17850749>

Tilovov Qorjov

Termiz Davlat Pedagogika instituti pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti tarix kafedrası o'qituvchisi

Nazarboyeva Dilobar.

Ro'ziboyeva Laylo.

Tarix ta'lim yo'nalishi 1 kurs talabasi

Annotatsiya

Ma'lumki soliqlar tizimi har bir davlatning ichki hayotida muhim o'rin tutadi. Shuningdek soliq tizimi Temuriylar davlatida ham katta ahamiyatga ega bo'lga

Kalit so'z

Soliq tizimi, xiroj solig'i, jizya solig'i, zakot solig'i, ushr solig'i, ko'k puli solig'i.

"Amr etdimki hech bir shahar va qishloqda odamlardan jon solig'i, uy solig'i olmasinlar"

A. Temur.

Amir Temur insoniyat tarixida chuqur iz qoldirgan yirik davlat arbobi va o'rta asrning yengilmas lashkarboshisi sifatida yirik saltanat barpo qilgan buyuk shaxs. U har doim o'z davlat tizimini takomillashtirib borishni o'ylar edi. Shu bilan birgalikda davlatni idora etishda soliq siyosatining o'rni beqiyos ekanligini ham yaxshi tushunar edi. Ma'lumki soliqlar tizimi har bir davlatning ichki hayotida muhim o'rin tutadi. Chunki aholidan yig'ib olinadigan soliqlar davlatning moliyaviy ahvolini yaxshilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Amir Temur Chingiziy xonlaridan farqli o'laroq o'z davlatida muayyan soliqlar tizimini ishlab chiqdi va aholidan olinadigan soliq va yig'implarni ma'lum bir tartibga solishga erishdi. Sohibqiron Amir Temur davlatidagi soliq va yig'implar tartibini shartli ravishda uch turga bo'lish mumkin.

1. Fuqarolardan doimiy ravishda yig'iladigan asosiy soliqlar.
2. Soliq yig'uvchilar va uning hisob kitobi bilan band bo'lgan turli lavozimdagi ma'murlar aytioji uchun yig'iladigan yig'implar.

3. Favqulotda xollarda yoki odatdan tashqari vaqtlarda aholidan yig'ildigan yig'imlar.

Fuqarolardan doimiy ravishda yig'ildigan asosiy soliq-lar tarkibiga: Xiroj solig'i, Jon solig'i, chorva mollaridan olinadigan zakot va shaharda istiqomat qiluvchi aholi-dan olinadigan soliqlarni kiritish mumkin. Sohibqiron saltanatida dehqonchilik qilinadigan yerlardan olinadigan asosiy soliq turi xiroj hisoblangan. Xiroj solig'i yer va undan olinadigan daromadlar hisobidan yig'ildigan soliq turi bo'lib, u ba'zi manbalarda "mol" ham deb yuri-tiladi. Sohibqiron saltanatidagi yana bir solig' turi Ushr solig'i bo'lib bu soliq asosan yirik yer egalaridan undiril-gan. Ushr solig'ining miqdori yerdan yillik olingan daro-madning o'ndan bir qismini tashkil qilgan. Shuningdek bog' va daraxtzorlarga "mol sardaraxt" solig'i, yaylov va o'tloqlardan foydalanganlik uchun esa "ko'k puli" kabi soliqlar joriy qilingan. Ushbu soliqlarni to'plashda qadimdan rasm bo'lib kelgan tartib va qoidalarga amal qilingan. Shu bilan bir qatorda chorva mollariga ham zakot solig'i solingan. Zakot solig'ining miqdori mollar sonining qirقدan birini tashkil qilgan. Agar fuqarolardan birining chorva mollarining soni qirقدaga yetmasa, unda o'sha odam zakot solig'idan ozod qilingan. Soliqlar ho-kimyat tomonidan belgilab qo'yilgan uch muddatda: Sa-raton (iyun, iyul) sumbula-mezon (avgust) va qavs (noyabr) oylarida to'planar edi. Harbiy yurishlar davrida mag'lub etilgan aholidan sari shumor (jizya solig'i) olin-gan. Davlat xavf ostida qolib harbiy safarbarlik e'lon qi-lingan paytlarda favqulotda soliq - avorizot yig'ib olin-gan. Temuriylar davrida qurilish ishlari kengayib, bu davrda qad ko'targan saroylar, jamoat binolari, mudofaa, sug'orish inshootlari, yo'l qurilishi va tuzatishlarida meh-natkash aholi kuchidan keng foydalanilgan. Mazkur ish-lar jarayonida Mirobona, Dorug'ona soliqlari undirilgan. Hosil miqdorini belgilovchilarga sohibi jamona; soliq yig'uvchilarga muxassilona; kirimni boshqaruvchilarga zobitona; Dorug'alarga dorug'ona; shu taqsimlovchi mi-roblar foydasiga Mirobona kabilar to'langan. Favqulotda soliqlar ham amal qilgan bo'lib ularga molujihat - yer so-lig'ining bir turi bo'lib, pul yoki natura tarzida to'lanishi mumkin bo'lgan, ixrojot - saroylarga qarash uchun max-sus yig'im, xonamushar - har bir xonadondan olinadigan yig'im, Qo'nalg'a - elchi, amaldorlar, choparlarni bepul qabul qilish va mehmon qilish yig'imi, shilon puli - noiblarni ziyofat qilishi uchun yig'im, jon solig'i - jon bo- shidan yiliga bir marta to'planadigan soliq; peshkash - yuqori mansabdagi amaldorlarga sovg'a berish uchun yig'inlarni kiritish mumkin. Xulosa qilib aytganda Amir Temur va Temuriylar davrida bir qator tartibli soliq tizimiga amal qilingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. "Boburnoma".
2. Jaloliddin Mirzo. "Termiz sayyidlari".
3. Nizomiddin Shomiy. "Zafarnoma".
4. "Temur tuzuklari". Amir Temur.
5. B.Axmedov. "Amir Temur".
6. Arxiv.uz.